

Hindiston va Xitoyga hamyonbop tarzda sayohat qiling!

2025 19 Fevral

20-fevral kuni "Yorqin payshanba" aksiyasi doirasida Toshkentdan Goa, Mumbai, Pekin, Urumchi va ortga qaytuvchi aviaqatnovlar uchun tariflar narxidan 15% gacha chegirma e'lon qilamiz.

Aksiya faqat bir kun – 00:00 dan 23:59 gacha amal qiladi.

Aviachiptalarni www.uzairways.com saytidan, ilovadan, Uzbekistan Airways Salesfilialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin. Yo'lovchi va yuk tashish tarifiga qo'shimcha ravishda turli soliqlar, yig'imlar vaqo'shimcha to'lovlar belgilanadi, ularga 15% gacha chegirma qo'llanilmaydi.

Aksiyasining batafsil shartlari:

Aksiya muddati 2025-yil 20-fevral soat 00:00 dan 23:59 gacha;

Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

kattalar uchun tarifdan – 15% gacha;

2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 15% gacha;

chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;

Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'imlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;

Ilgari sotib olingan aviachiptalar 20.02.2025da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;

Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta

bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya'ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;

Aviatahuv muddati cheklanmagan (aviatahuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;

Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Goa, Mumbay, Pekin, Urumchi va ortga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

Uzbekistan Airways O'zbekistondagi eng yirik aviakompaniya hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega. Uning aviaparkida Boeing 767/787, Airbus A320ceo/320neo/321neo/A330, L-410, ATR-72 kabi havo kemalar mavjud.

Yo'nalishlar tarmog'i va havo kemalar parkini doimiy ravishda kengaytirmoqda hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilaydi. Parvoz xavfsizligi esa aviakompaniya uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Uzbekistan Airways muntazam, charter va yuk tashuvchi aviaqatnovlarini hamda Uzbekistan Airways Express loukoster tizimi bo'yicha ham parvozlarni amalga oshiradi.

Uzbekistan Airways tarkibiga "Uzbekistan Helicopters" MChJ, "Uzbekistan Airways Technics" MChJ, "Catering" MChJ, "O'quv-mashq markazi" MChJ kabi kompaniyalar ham kiradi.